Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU "Falsafa va sotsiologiya" kafedrasi dotsenti (PhD); Fazliddin3210@umail.uz)

FUQAROLIK MADANIYATI O'ZBEK MODELINING OBYEKTIV OMILLARI

Annotatsiya. *Maqola O'zbekistonda istiqomat qilayotgan kishilarning fuqaro sifatida shakllanganligi darajasi tahliliga bag'ishlangan. Maqolada fuqarolik madaniyati o'zbek modelining omillari tahlil qilingan. Xususan, fuqarolik madaniyati o'zbek modelining obyektiv omillari sifatida tabiiy shart-sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy turmush va milliy madaniyatga diqqatga qatilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs fuqarolik madaniyati, nazariy model, fuqarolik madaniyati o'zbek modeli, obyektiv omillar, tabiiy shart-sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy turmush, milliy madaniyat.*

Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD)

ОБЪЕКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *Статья посвящена анализу уровня формирования граждан, проживающих в Узбекистане. В статье анализируются факторы узбекской модели гражданской культуры. В частности, уделяется внимание природным условиям, экономическим отношениям, политическим процессам, общественной жизни и национальной культуре как объективным факторам узбекской модели гражданской культуры.*

Ключевые слова: *личная гражданская культура, теоретическая модель, узбекская модель гражданской культуры, объективные факторы, природные условия, экономические отношения, политические процессы, общественная жизнь, национальная культура.*

Kadirov Fazliddin Yuldoshovich (senior teacher of the Department of Philosophy and Sociology of KarSU (PhD)

OBJECTIVE FACTORS OF THE UZBEK MODEL OF CIVIC CULTURE

Annotation. *The article is devoted to the analysis of the level of formation of citizens of people living in Uzbekistan. The article analyzes the factors of the Uzbek model of civic culture. In particular, attention is paid to natural conditions, economic relations, political processes, social life and national culture as objective factors of the Uzbek model of civic culture.*

Key words: *Personal civic culture, theoretical model, Uzbek model of civic culture, objective factors, natural conditions, economic relations, political processes, social life, national culture.*

Kirish. Ma'lumki, nazariy model o'z nomi bilan nazariy xarakterga ega. Odatda, har qanday nazariy model amaliyotning konkret jihatlaridan yiroqlashgan holda ilmiy tasavvurlar asosida shakllantiriladi. Bunday yondashuvning ilmiy asoslari mavjud. Holbuki, u yoki bu tushuncha mazmuni va tarkibi xususida tizimli tasavvurlarni shakllantirish uchun uning modelini qaror toptirish foydadan xoli emas. Real hayotda esa vaziyat birmuncha o'zgacharoq kechadi. Turli mamlakatlarda fuqarolik madaniyati o'z ko'rinishiga ega bo'lib, u shu mamlakatdagi tabiiy-ekologik vaziyat, jamiyatdagi turli sohalarning tendensiyalari, ayni paytda milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari ta'siri o'laroq, tuslanib boradi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan kishilarning fuqarolik ongi va faoliyati xususida ham shunday deyish mumkin. U tarixiy taraqqiyot davomida turli jarayonlarga hamohang tarzda rivojlanib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XXI asr boshlariga kelib, fuqarolik madaniyatining shakllanishi qonuniyatlarini yangi ijtimoiy voqelik kontekstida tadqiq qilish zaruriyati ortib ketdi. Jumladan, P. Byukenen G'arb jamiyatlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning shaxs fuqarolik madaniyatiga ta'sirini [1;44-b.], J.Drayzek global siyosat oqibatida shaxs fuqarolik faoliyatida yuz bergan o'zgarishlarni [2; 208-b.], U.Kimlika multikulturalizm va shaxs fuqaroviy pozitsiyasi o'rtasidagi aloqadorlikni [3;194-b.], Y. Xabermas g'arbona demokratiya va shaxs fuqarolik ongi transformatsiyasi masalalarini [4;211-b.], A.Yang umumbashariy muammolarning shaxs fuqarolik qadriyatlariga ta'sirini ochib beradi [5;224-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Retrospektiv tahlil natijalari ko'rsatishicha, u ko'p asrlar davomida jamiyatdag sodir bo'lgan voqea va hodisalar ta'sirida o'zgarib va rivojlanib borgan. Tushunchaning tarkibiy-funksional tahlili bu model o'zbek kishisiga xos bo'lgan qator xususiyatlarni o'zida mujassam etishini ochib beradi. Sistema va element metodi tushunchaning asosiy elementlari va bu elementlarning turfa xossalarini ilmiy mulohazalar va faktlar yordamida ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Model bu bir obyekt, shaxs yoki tizimning ma'lumotlar bilan ta'riflangan tasviridir. Ushbu atama XVI asr so'nggida ingliz tilida "arxitektik rejalar" mazmunini anglatib, lotinchada *"modul"* o'lchov ma'nosida keladi [6]. Modellar jismoniy (kema modeli yoki moda modeli) va abstrakt (havo prognozi haqida ma'lumot beruvchi matematik tenglamalar to'plami) modellarga bo'linadi. Abstrakt va konseptual modellar fan falsafasining markaziy qismi hisoblanadi [7].

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy fanlarda modelni nazariya bilan chalg'itilishi kerak emas: model faqat haqiqatni yaxshiroq tushunish yoki dunyoni bashoratni ifodalashga harakat qilsa, nazariya haqiqatni tushuntirish deb e'tirof etishilishi bilan ko'proq tavofutlanadi [8].

Nazariy model esa bu murakkab hodisa, obyekt yoki jarayonning asosiy g'oyalari va ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tushunchaviy asosdir. U real hayotdagi narsalarni oddiy va tushunarli sxemalarda ko'rsatib beradi. Bu usul ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Nazariy modelning ahamiyati	
Asosiy tushunchalar	•Tadqiqotdagi eng muhim qismlar (tushunchalari)ni yig'ib beradi.
Tizimlilik:	•Turli jarayonlarning o'zaro qanday ishlashini ko'rsatadi.
Yo'nalish:	Tadqiqotchi uchun aniq yo'l xaritasini yaratadi.
Asosiy xususiyatlar borasida	
Soddalik:	Murakkab narsalarni oson tushunish uchun soddalashtiradi.
Abstraksiya:	1. Keraksiz kichik tafsilotlarni olib tashlaydi.
Izoh berish:	Nimaga shunday bo'layotganini ilmiy asoslab beradi.
Real hayotdagi oddiy misollar	
Arxitekturada:	Uy qurishdan avval uning chizmasi yoki kichik maketi yasaladi. Bu nazariy model hisoblanadi.
Psixologiyada:	•Inson qobiliyati yoki aqlini o'rganishda miyaning ishlash sxemasi chiziladi.
Savdoda:	•Mijoz qanday qilib mahorat bilan xarid qilishi bosqichma-bosqich tushuntiriladi.

Jamiyatning nazariy modeli – bu jamiyat qanday ishlashini tushuntiruvchi mukammal va ideal qoidalar majmui bo'lsa, **real jamiyat** esa odamlarning kundalik hayotdagi murakkab, xato va qarama-qarshiliklarga to'la amaliy yashash tarzi [9].

Asosiy farqlar quyidagicha:	**Nazariy model**	**Real jamiyat**
Maqsadlar borasida:	Nazariy modelda hamma teng va qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunadi.	Real jamiyatda esa manfaatlar to'qnashuvi va tengsizlik mavjud bo'ladi.
Munosabatlar borasida:	Nazariyada barcha ijtimoiy qatlamlar mukammal muvozanatda ishlaydi.	Amalda esa boylik, siyosat va shaxsiy manfaatlar bu muvozanatni doimiy ravishda buzib turadi.
O'zgarishlar borasida:	Model sekin va reja bo'yicha rivojlanadi.	Real hayotda ijtimoiy o'zgarishlar kutilmagan va tartibsiz bo'ladi.
Tahlil:	•Nazariy modellar bu xaritaga o'xshaydi va ular yo'nalish ko'rsatadi.	Real hayot – bu yo'ldagi haqiqiy to'siqlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.
Xulosa:	•Nazariy modellar to'g'ri tushuncha beradi.	Ammo real hayot doimo ulardan murakkabroq bo'ladi.

Fuqarolik madaniyati o'zbek modeli fuqarolik ongi va faoliyatining O'zbekistonga xos bo'lgan, o'zbek kishisining dunyoqarashi va faoliyat tarzini o'zida mujassam qilgan ko'rinishidir. Bu model quyidagilar bilan shartlangandir:


- tabiiy shart-sharoitlar: Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga xos bo'lgan tabiiy omillar, hududning geografik xususiyatlari – relyefi, iqlimi, daryo va ko'llari, o'simliklar va hayvonot dunyosi – kishilarning olam haqidagi tasavvurlariga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatgani kabi, fuqarolik ongi va faoliyatida ham jiddiy iz qoldirgan;
- iqtisodiy munosabatlar; mamlakatdagi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq turfa aloqalar kishilar ruhiyati va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan, ruhiyatning hissiy va aqliy elementlari odamlarning fuqaro sifatida kamol topishlarida ham asos bo'lgan;
- siyosiy jarayonlar; milliy davlatchilik rivojining o'ziga xos jihatlari, siyosiy institutlar mazmuni va ijtimoiy pozitsiyasi, turli subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar bularning barchasi nafaqat siyosiy borliq atributlari, balki jamiyat a'zosining fuqaro sifatidagi dunyoqarashini qaror toptiruvchi omillardir;
- ijtimoiy turmush; milliy turmush asosini tashkil qilgan tamoyillar, masalan kishilarning jamoa qadriyatlarini e'zozlab yashashga o'rganganlari, jamiyat ehtiyoj va manfaatlarini qadrlaganlari, o'z manfaatlarini keyingi o'ringa qo'yishga odatlanganlari ularning fuqarolik ongi va faoliyatida ham iz qoldirgan;

- milliy madaniyat; tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida madaniyat tarkibiy qismlarining kishilarga ta'siri ulkanligi bilan tavsiflangan. Bu elementlar jamiyat a'zolarining fuqaro sifatida sa'y-harakatlari asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

Fuqarolik madaniyati o'zbek modeli ko'p asrlar davomida yuqorida tilga olingan omillar ta'sirida asta-sekinlik bilan qaror topa borgan. Boshqacha aytadigan bo'lsak, o'zbeklarning fuqarolik ongi va faoliyatidan joy olgan neki holat bor, ularning barchasi o'zbek diyoridagi tabiiy vaziyat, o'zbek jamiyati borlig'iga xos bo'lgan xossalar, uning turli davrlardagi ehtiyoj va manfaatlari, intilishlari va hoyu-havaslariga mutanosib tarzda shakllangan. Aynan shu xossalar, xususiyatlar, holatlar nafaqat o'zbek fuqarolik madaniyati mazmunini, balki undagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini ham belgilagan.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, fuqarolik madaniyati nazariy modeli turli mamlakatlarda turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Uning O'zbekistondagi ko'rinishini "shaxs fuqarolik madaniyatining o'zbek modeli" deyish to'g'riroq bo'ladi. Fuqarolik ongi va faoliyatining O'zbekistonga xos bo'lgan, o'zbek kishisi dunyoqarashi va faoliyat tarzini o'zida mujassam qilgan ko'rinishini shaxs fuqarolik madaniyati o'zbek modeli deb tavsiflash mumkin. O'zbekistonda shaxs fuqarolik madaniyati yurt tabiatining o'ziga xos tomonlari, tarixiy taraqqiyot mobaynida mamlakatda yuz bergan voqea va jarayonlar bilan shartlangandir.

Mazkur jarayon fuqarolik madaniyati o'zbek modelining obyektiv omillarini umumlashtirish imkonini beradi:



Fuqarolik madaniyati o'zbek modelining obyektiv omillari nafaqat o'ziga xoslik va milliylikni saqlab qolish, balki jamiyat a'zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish bilan bog'liq strategik maqsad va muddaolar atrofida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бьюкенен П. Смерт Запада. АСТ, Москва, 2003, с. 44.

(2). Dryzek J. Deliberative Global Politics: Discourse and Democracy in a Divided World. Cambridge, Polity Press, 2006, p. 208

(3). Kymlicka W. Politics in the vernacular: nationalism, multiculturalism and citizenship. Oxford, Oxford University Press, 2001, p. 194.

(4). Habermas J. Der gespaltene Westen. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 2004, p. 211.

(5). Young I. Global challenges: war, self determination and responsibility for justice. Cambridge Malden, 2006, p. 224.

(6). https://uz.wikipedia.org/wiki/Model_tushunchasi

(7). https://web.archive.org/web/20201010163505/https://unabridged.merriam-ebster.com/subscriber/login?red

(8). Wunsch G. "Theories, models, and data". 1994. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.

(9). https://www.google.com/search?q=jamiyatning+nazariy+modeli+va+real+jam